1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Dunyodagi ilk shaharlar dastlab qaysi davlatda paydo bo‘lgan?
A) Mesopotamiya B) Xitoy
C) Misr D) Hindiston

2. Yunonlar qachon Italiya sohillarida koloniyalarga asos solishgan?
A) Mil. avv. IX-VIII asrlarda
B) Mil. avv. VIII-V asrlarda
C) Mil. avv. VIII-VI asrlarda
D) Mil. avv. VII-V asrlarda

3. O‘zbekiston qachon g‘alla mustaqilligiga erishgan edi?
A) 2000-yil B) 2001-yil
C) 2002-yil D) 2003-yil

4. Ilk o‘rta asrlarda qaysi davlat tabiblari insonning bosh suyagida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilgan?
A) Mayya B) Astek
C) Ink D) Aksum

5. “Aholi geografiyasiga kirish” nomli asarning muallifini aniqlang.
A) Mahmudxo‘ja Behbudiy
B) Abdulla Avloniy
C) Munavvarqori Abdurashidxonov
D) Sadriddin Ayniy

6. Qadimgi Rimda barcha fuqarolarning teng va yashirin ovozi bilan saylangan lavozimni aniqlang.
A) Konsul B) Xalq tribuni
C) Diktator D) Sektor

7. XIX asning ikkinchi yarmida Xiva xonligi hududida qoraqalpoqlarning soni necha nafar kishini tashkil etgan?
A) 20 000 B) 25 000
C) 30 000 D) 35 000

8. “Milliy kalendar” jurnali qaysi davlatda nashr etilgan edi?
A) Albaniya B) Bolgariya
C) Serbiya D) Chernogoriya

9. XVI asrda Papa boshliq katolik reaksiyasining barcha daxshatini o‘zida his qilgan davlatni aniqlang.
A) Italiya B) Angliya
C) Fransiya D) Germaniya

10. Belgiya davlatining poytaxti Brusselda qaysi allomaning sharafiga haykal o‘rnatilgan?
A) Abu Rayhon Beruniy B) Abu Ali ibn Sino
C) Ahmad al-Farg‘oniy D) Muso al-Xorazmiy

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari Temuriylar qo‘lidan ketishi kimning nomi bilan bog‘liq?
A) Xudoydod B) Shayx Nuriddin
C) Pir Ali Toz D) Qora Yusuf

12. Xalq qo‘zg‘oloni oqibatida marokashliklar hukmronligiga chek qo‘yilganiga qaramay qaysi davlat parchalanib ketadi?
A) Aksum B) Songai
C) Mali D) Gana

13. “Imperiya bu – tinch-totuvlik” degan jumla muallifini aniqlang.
A) Napoleon I B) Napoleon III
C) Karl X D) Lyudovik XVI

14. Qaysi tarixiy me’moriy obidaning tashqi tomoni silliq g‘ishtlar va feruza rang koshinlar bilan shaxmat taxtasi shaklida bezatilgan?
A) Nurillaboy saroyi B) Sitorayi Mohi Xosa
C) Islomxo‘ja minorasi D) Tillashayx masjidi

15. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat olib borgan miniatura, tasviriy san’at namoyondalarini aniqlang.
A) Ibrohim Hofizov, Mo‘minjon Solihov
B) Shirin Murodov, Obloqul
C) Abduxoliq Maxdum, S. Siddiqov
D) So‘fi Muhammad Niyoz, Odina Muhammad Murod

16. O‘rta Osiyoda taraqqiyparvarlik harakatining ikkinchi bosqichi boshlangan yilda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) E. Sapata va F. Vilya qurolli kuchlari mamlakat poytaxti Mexikoni egalladi.
B) AQSH Kongressi trestlarga qarshi qonun qabul qildi

C) Germaniyada cho‘yan ishlab chiqarish 17,6 tonnaga yetdi
D) Meksikada demokratik ruhdagi konstitutsiya qabul qilindi

17. Mustamlaka davrigacha Turkistonda an’anviy ta’lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo‘lib, ta’limning uchinchi bosqichida o‘quvchilarga qaysi kitob o‘qitilgan?
A) “Risolayi aziza” B) “Sabot ul-ojizin”
C) “Chor kitob” D) “Haftiyak”

18. Kimning esdaligida “Agar Xiva xoni Sherg‘ozixon yo‘qotilsa, bu yerda tinchlik o‘rnatiladi va hamma yo‘llar ochiq bo‘ladi”, deb qayd etilgan?
A) N. N. Muravyov B) F. Beneveni
C) R. Baziner D) N. Ignatyev

19. Amir Nasrullo yana Qo‘qonga yurish qilib, 40 kun qamal qilgan davrda Xiva xoni kim edi?
A) Muhammad Rahimxon B) Muhammad Aminxon
C) Olloqulixon D) Said Muhammadxon

20. Qoraqalpoqlarda Chimboy, Qo‘ng‘irot dehqonchilik vohalari qachon vujudga keldi?
A) XVIII asr boshlarida B) XIX asr o‘rtalarida
C) XIX asr boshlarida D) XVIII asr oxirida

21. G‘arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchaygan davrda uning sharqiy chegarasi qayergacha borgan?
A) Amudaryo B) O‘tukan vodiysi
C) Sind daryosi D) Oltoy

22. Yevropaliklar tomonidan Hindiston va Amerikaga dengiz yo‘llarining ochilishi, yangi savdo yo‘llaridan chetda qolgan qaysi davlatning shaharlari, o‘zlarining avvalgi ahamiyatini yo‘qotadi?
A) Angliya B) Portugaliya
C) Italiya D) Ispaniya

23. IX-X asrlarda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur hududni aniqlang.
A) Samarqand B) Shosh
C) Buxoro D) Eloq

24. Qadimgi Misrda astronomiya fani qay tariqa vujudga keldi?
A) Olimlar kun botishi muddatini yulduzlarga qarab aniqlashgandan so‘ng
B) Olimlar kun chiqish muddatini yulduzlarga qarab aniqlashgandan so‘ng
C) Ziroatchilar yerga ekin ekish, hosilni yig‘ishtirib olish muddatini yulduzlarga qarab aniqlashgandan so‘ng
D) Olimlar kun botish muddatini oyga qarab aniqlashganidan so‘ng.

25. Rus podshosi Ivan IV ga podsholik unvonining berilishi …
A) uni G‘arbiy Yevropa davlatlari qirollari bilan bir qatorga qo‘ydi.
B) knyazlarning o‘zaro kurashlarini yanada kuchaytirib yubordi.
C) G‘arbiy Yevropa qirollarining noroziliklariga sabab bo‘ldi.
D) Oltin O‘rda podsholarining urushlariga sabab bo‘ldi.

<u>3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi</u>

26. Ishlab chiqarish va savdoni o‘zlaricha emas, markaziy boshqaruv qarori asosida olib boradigan korxonalar birlashmasi bu ...
A) Sindikat B) Konsern
C) Trest D) Kartel

27. Noto‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) Sanoat to‘ntarilishi XIX asrning 40-yillarida Buyuk Britaniyada yuz berdi
B) XVI asrning oxirigacha qul savdosi bilan faqat portugallar shug‘ullangan
C) Buyuk Britaniyada 1832-yilgi parlament islohoti saylov huquqi uchun kurashni batamom to‘xtatdi
D) Fransiyada qirol Lui Filipp taxtdan voz kechib, Buyuk Britaniyaga qochib ketadi

28. Qaysi davrga kelib Yevropa shaharlari ichimlik va oqava suv tarmoqlariga, tramvay va metroga ega bo‘ldi?
A) XIX asr boshlarida B) XVII asr o‘rtalarida
C) XX asr boshlarida D) XIX asr oxirlarida

29. Somoniylar davrida mahkama xizmatchilari qaysi tillarni mukammal bilishi shart edi?
A) arab va fors B) arab va turk
C) fors va turk D) sug‘d va arab

30. Jon Braun faoliyati bilan bog‘liq xato ma’lumotni toping?
A) Og‘ir yarador bo‘lgan Braun qamoqqa olinib, otib o‘ldirishga hukm qilindi
B) Braun umumiy qo‘zg‘olon ko‘tarishga muvaffaq bo‘lolmadi
C) Braun tuzgan qurolli guruh 22 kishidan iborat bo‘lgan
D) Jon Braun harakati AQSHda XIX asr 50-yillarining oxirida sodir bo‘lgan

31. Avstriya qo‘l ostida qolgan Venetsiya viloyati Italiya qirolligiga qo‘shib olingan yilda sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) AQSHda qullik bekor qilindi
B) Kavkaz Rossiya tarkibiga kiritildi
C) Fransiya ta‘sirida bo‘lgan Rim shahri Italiya qirolligiga qo‘shib olindi
D) AQSH Kongressi tomonidan konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritildi va qora tanlilarning fuqarolik va siyosiy huquqlari oq tanlilarniki bilan tenglashtirildi

32. AQSH sanoat mahsuloti hajmi jihatidan birinchi o‘ringa chiqqan yili jahon tarixida bo‘lgan voqeani aniqlang.
A) Parij shahrida AQSH-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi
B) Shovinistik tashkilot “German Ittifoqi” tuzildi
C) Fransiyada mamlakat prezident Sadi Karno o‘ldirildi
D) Vilgelm II “Hazrati Iso qabri”ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga bordi

33. Avstriya-Vengriya imperiyasidagi qaysi hudud milliy zulm ostida edi?
A) Galitsiya B) Slovakiya
C) Moraviya D) Bukovina

34. XIX asr oxirida Xitoy bilan qaysi davlat o‘rtasida tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga solgan edi?
A) Fransiya B) Germaniya
C) Buyuk Britaniya D) Yaponiya

35. Xitoy nechanchi asrlarda faol tashqi siyosat olib borgan?
A) V-VI asrlarda B) VIII-IX asrlarda
C) VII-VIII asrlarda D) IX-X asrlarda

36. Qachon Usmonli davlati Arabiston yarim orolini to‘la, Falastinning esa bir qismini boy beradi?
A) 1916-yil yozida B) 1916-yil qishida
C) 1917-yil bahorida D) 1917-yil kuzida

37. XIX asr Xiva xonligida oliy (madrasa) o‘quv yurtida qo‘shimcha tarzda qaysi fanlar o‘qitilgan?
A) islom huquqi, islom falsafasi B) tarix, musiqa
C) arab grammatikasi, tarix D) arifmetika, geometriya

38. X asrdan boshlab O‘rta Osiyo ...
A) Paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan imoratlar shahar me’morchiligida asosiy o‘rinni egallagan
B) Binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi
C) Musiqa san’ati ham g‘oyat taraqqiy etadi
D) Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketadi

39. Fransiya imperatori Napoleon III o‘z mavqeyini tiklab olish uchun …
1. Prussiyaga qarshi g`olibona urush zarur edi
2. Germaniyani birlashtirishga yo‘l qo‘ymaslik zarur edi
3. Germaniyaning ba’zi hududlarini bosib olishi zarur edi
4. Fransuz tovarlarining Germaniyada bojsiz sotilishiga imkon yaratish zarur edi
5. Ishchilarning daromad soliqlarini kamaytirish va ish haqlarini 10 foizga oshirish zarur edi

A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

40. Buxoro amirligida devonbegiga bo‘ysungan mansab egasini toping.
A) qo‘shbegi B) dodhoh
C) muhtasib D) mirzaboshi